

“YER RESURSLARINI BOSHQARISH MAQSADINI AMALGA OSHIRISH UCHUN ILMIY AMALIY VAZIFALAR”

**“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va
agrotexnologiyalar instituti
ass.Tursunov Suhrob Ro‘zimurod o‘g‘li,
talaba Eshnazarov Azamat Abdurashid o‘g‘li**

Annotasiya: Har qanday mamlakatda, uning milliy boyligi hisoblangan yer resurslaridan foydalanishni samarali tashkil etish, birinchi galda, uni shu joyda tashkil etilgan maxsus organlar yordamida oqilona boshqarishni talab etadi. Bu qoida respublikamiz yer maydonlariga ham tegishli bo‘lib, ular umumxalq mulki, mamlakatning milliy boyligidir . Rasmiy ma’lumotlarga qaraganda, 2021-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining umumiyligi yer maydoni 44896,4 ming hektarni tashkil etib, uning 80% ga yaqini turli korxona, muassasa va tashkilotlarga, shuningdek fuqarolarga turli huquqlar asosida foydalanishga berilgan. Shunday ekan, ushbu yer maydonlarini bugungi bozor sharoitiga mos ravishda iqtisodiyotning turli sohalarida samarali va unumli foydalanishni, ularni va umuman, atrof muhitni muhofaza qilishni o‘z vaqtida davlat darajasida amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish uchun ham respublikada maxsus boshqaruvi tizimi tashkil etilgan.

Kalit so’zlar: Yer resurslaridan samarali foydalanish va boshqarishning funksiyalari, yerlarning mikdori va sifat o‘lchovi, bozor sharoiti.

Аннотация: В любой стране эффективная организация использования земельных ресурсов, считающихся ее национальным богатством, прежде всего, требует рационального управления ими с помощью создаваемых в этом месте специальных органов. Это правило распространяется и на земельные участки нашей республики, являющиеся общественной собственностью, национальным богатством страны. По официальным данным, по состоянию на 1 января 2021 года общая площадь земель Республики Узбекистан составляет 44 896,4 тыс. га, из них около 80,0% предоставлено в пользование различным предприятиям, учреждениям и организациям, а также гражданам. на основе различных прав. Поэтому в республике создана специальная система управления в целях обеспечения эффективного и продуктивного использования этих земельных участков в различных отраслях экономики в соответствии с современными рыночными условиями, а также своевременного осуществления их охраны и охраны окружающей среды на уровне государственный уровень.

Ключевые слова: функции эффективного использования и управления земельными ресурсами, количественный и качественный учет земли, рыночные условия.

Annotation: In any country, the effective organization of the use of land resources, which is considered its national wealth, first of all, requires its rational management with the help of special bodies established in this place. This rule also applies to the land areas of our republic, which are public property, national wealth of the country. According to official data, as of January 1, 2021, the total land area of the Republic of Uzbekistan is 44,896.4 thousand hectares, and about 80.0% of it is given to various enterprises, institutions and organizations, as well as citizens for use based on various rights. Therefore, a special management system has been established in the republic in order to ensure the effective and productive use of these land areas in various sectors of the economy in accordance with today's market conditions, as well as timely implementation of their protection and environmental protection at the state level.

Key words: functions of effective use and management of land resources, quantity and quality measurement of land, market conditions.

Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish-iqtisodiy texnik, tashkiliy-xo‘jalik va huquqiy jihatdan davlat tadbirlar tizimi bo‘lib, yer munosabatlarini tartibga solish, yer resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil qilish va muxofaza qilishda jamiyat hamda yer egaligi va yerdan foydalanuvchilar manfaatlarini uyg‘unlashtira oladigan tadbirlar kompleksi hisoblanadi.

Yer resurslarini boshqarish maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy amaliy vazifalarni hal etish ko‘zda to‘tadi.

- yer resurslarini boshqarish bo‘yicha chet el tajribalarini tadqiqot qilish va foydalanish;
- yerdan foydalanish tushunchasining iqtisodiy mohiyatini ohib berishni. Uning shakllanishi va jarayon ko‘laming ob’ektiv shart - sharoitlarini bozor munosabatlariga o‘tish jarayoniga mos holda tatqiq qilish;
- ma’muriy tuman, viloyat va davlat mikyosida yagona davlat kadastrlari va yer kadastrini yuritish mexanizmlarini o‘rganib chiqishning va samarali, istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashni;
- yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning davlat tadbirlar tizimi sifatida tushunchasi va iqtisodiy mohiyatini yoritishni;
- yer kadastrini murakkab va yaxlit tizim sifatida ilmiy – uslubiy asoslarini ishlab chiqishni;
- yer resurslaridan samarali foydalanish tamoyillari tizimini asoslashni;

- maxsus yer fondini tashkil etishning iqtisodiy mexanizmini yaratishni tatqiq qilishni;
 - yer resurslarini tarmoqlararo taqsimotining modellarini yaratiishi;
 - yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishda ko‘chmas mulklar omiliniig ta’sir mexanizmini takomillashtirishni.

Taklif va tavsiyalar. Taklif etilgan vazifalarni bir nechta yo‘nalishlardan iborat kilib bajarish ko‘zda tutiladi. Masalan, yer kadastrini joriy etishda davlat kadastrlari tizimidagi o‘rnini, vazifasini bilgan holda yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish, «yerlarning mikdor va sifat o‘lchovni», «yerlarning iqtisodiy bahosi» kabi masalalarni alohida va uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqishni takozo etadi.

Albatta, ushbu tizim ma’lum ma’noda YeRSFB ning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Lekin bozor iqtisodyyoti qonuniyatlarini xalq xo‘jaligining barcha sohalariga bo‘lgan ob’ektiv ta’siri keltirilgan tizimga juz’iy tuzatmalar kiritishni takozo etadi. Masalan, tarmoqlararo va tarmoq ichidagi yer taqsimoti, yer toifalaridagi ob’ektiv o‘zgarishlar, yerdan foydalanish bo‘yicha huquqiy masalalar qayd etilgan tizimni takomillashtirishga asos bo‘ladi. Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish vazifalarini ilmiy va amaliy jihatdai o‘rganish va taxlil qilish natijasida quyidagi o‘zaro uzviy bog‘liq. bo‘lgan tizimni tavsiya etamiz:

- 1.Yer resurslarini kompleks o‘rganish.
- 2.Davlat kadastrlar tizimi tarkibida yer kadastrini joriy etash.
- 3.Yer resurslarini tarmoqlararo va yer toifalari bo‘yicha taqsimoti.
- 4.Yer resurslarini prognozlash.
- 5.Yer tuzishni loyihalash.
- 6.Yer munosabatlarini tartibga solish.
- 7.Yerdan foydalanishni nazorat qilish va yerdan foydalanuvchilarni rag‘batlantirish.
- 8.Yerga egalik qilish va foydalanish bo‘yicha huquqiy assoslarni takomillashtirish hamda nizolarni hal etish.
- 9.Boshqarish vazifalari tizimida bog‘liqlik va uzlusizlikni ta’minalash va belgilangan tadbirlarni hayotga tadbiq etishga erishish.

Yuqoridaq vazifalarni samarali va oqilona bajarish uchun Yer Resurslaridan Samarali Foydalanish va Boshqarishning barcha funksiyalarini birlashtirish asosida faollashtirish zarur bo‘ladi.

Respublika yer resurslaridan, shu jumladan, shaharlarga biriktirilgan yer fondidan samarali foydalanishni boshqarish masalalari amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxoatlarning negizi hisoblandi.

- yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish tamoyillari nazariy jihatdan rivojlantirilgan;
- bozor munosabatlari sharoitida yer taqsimoti nazariyasining asosiy yo‘nalishlari, mohiyati va ahamiyati o‘rganilgan hamda shunga asoslanib ilmiy amaliy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan;
- davlat yer monitoringining ilmiy uslubiy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash usullari asoslab berilgan;
- tuman, viloyat, mintaqqa va davlat miqyosida, bozor iqtisodiyoti sharoitida maxsus yer fondini tashkil yetish mexanizmi ilmiy jihatdan asoslanib, aniq tavsiyalab ishlab chiqilgan;
- xalq xo‘jalik tarmoqlari va tarmoq ichidagi sohalar bo‘yicha yer taqsimotining nazariy va amaliy masalalari bo‘yicha yechimlar berilgan;
- yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishda yerga bevosita biriktirilgan ko‘chmas mulklar xususiyatlarining bozor munosabatlari sharoitidagi o‘rni aniqlangan;
- yer kadastrining tamoyillari va tarkibiy qismlari hozirgi davr talab darajasida ilmiy - uslubiy jihatdan asoslab berilgan;
- yer munosabatlarini bozor iqtisodiyoti sharoitida tartibga solish tizimida yer tanqisligi qonuniyatlarini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish natijasida resurslar mutanosibligini iqtisodiy asosi yaratilgan;
- yer egaligi va yerdan foydalanuvchilar psixologik xususiyatlarini yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishga ta’siri qonuniyatları aniqlangan;
- yer resurslaridan foydalanishdagi nazoratning tezkor usullarini qo‘llash uslublarini chuqur tahlil qilish natijasida tashkiliy - iqtisodiy tadbirlar ishlab chiqilgan.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi - T.: O‘zbekiston, 1998
2. Vazirlar Mahkamasining 2019 yilning 9 yanvar «Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 14-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida». Yangi taxrir. -T.: O‘zbekiston, 2004
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030

yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmoni.